

## MAHALLA TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISNING KASBIY KOMPETENTLIGI

*Xayrixon Ashiraliyeva Raxmatova*

*Namangan DU, "Pedagogika" kafedrası PROFESSORI, p.f.n.*

*Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna*

*NamDPI p.f.f.d.(PhD)*

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim muassasalari xotin-qizlar bilan ishlovchi mutaxassislarni tayyorlashda katta ish tajribasiga ega. Ularning moddiy-texnik asosi, malakali pedagog kadrlar kontingenti mahalla tizimini rivojlantirish yo'lida hamkorlikka erishishga imkon beradi. Maqola orqali mahallada xotin-qizlar bilan ishlovchi mutaxassisning kasbiy kompetentligini oshirishda OTM bilan hamkorlikka erishish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** mahalla, tizim, mutaxassis, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, oshirish, kasbiy kompetentlikni oshirish, OTM, hamkorlik, mahalla tizimining OTM hamkorligi.

## ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СПЕЦИАЛИСТА, РАБОТАЮЩЕГО С ЖЕНЩИНАМИ В СИСТЕМЕ МАХАЛЛА

**Аннотация:** Высшие учебные заведения обладают обширным опытом подготовки специалистов, работающих с женщинами. Их материально-техническая база, квалифицированный педагогический контингент позволяют осуществлять сотрудничество в развитии системы махалл. В статье рассматриваются пути достижения сотрудничества с высшими учебными заведениями в повышении профессиональной компетентности специалистов, работающих с женщинами в махаллах.

**Ключевые слова:** район, система, специалист, компетенция, профессиональная компетентность, совершенствование, повышение профессиональной компетентности, высшее учебное заведение, сотрудничество, сотрудничество районной системы с высшими учебными заведениями.

## PROFESSIONAL COMPETENCE OF A SPECIALIST WORKING WITH WOMEN IN THE MAHALLA SYSTEM

**Abstract:** Higher education institutions have extensive experience in training specialists working with women. Their material and technical base, qualified pedagogical staff contingent allow for cooperation in the development of the mahalla system. The article discusses ways to achieve cooperation with higher education institutions in improving the professional competence of specialists working with women in the mahalla.

**Keywords:** neighborhood, system, specialist, competence, professional competence, improvement, improvement of professional competence, higher education institution, cooperation, cooperation of the neighborhood system with higher education institutions.

## KIRISH

Mahalla aholisining asosiy tarkibiy qismini xotin-qizlar tashkil qiladi. SHu bois mahallalarda fuqarolar yifini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-mahnaviy

masalalar bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy qilingan. Har qanday jamoada bo'lgani kabi mahalla xotin-qizlari bilan ishlash murakkab jarayon sanaladi. Jarayonning murakkabligi mahalla xotin-qizlarining yosh, ijtimoiy mansublik, ma'lumotlilik darajasi, kasbiy faoliyat yo'nalishi, shuningdek, mahnaviy-axloqiy qiyofasi, hayot tarzi, intilishlari, qadriyatli yondashuvlariga ko'ra xilma-xilligi bilan izohlanadi. Bu esa mahalla tizimida xotin-qizlar bilan ishlovchi mutaxassisning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishini taqozo qiladi. Bu mutaxassis qanday kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi zarur?

Mahalla tizimida xotin-qizlar bilan ishlovchi mutaxassisning kasbiy kompetentlik sifatleri xususida so'z yuritishda dastlab ikki muhim: "kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mohiyatini anglab olish talab qilinadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik manbalardan birida "kompetentlik" tushunchasi kognitiv jihatdan "shaxsning tasnifi" deya talqin qilinadi. Yahni, kompetentlik –shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari [3, 6-b.].

"Kompetentlik" tushunchasi juda ko'p holatlarda ta'im bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilgan. Xususan, ushbu masala 1996 yilda YuNESKO doirasida o'rganilganda Jak Delor ta'lim muassasalarida shaxsning asosan quyidagi to'rtta kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi muhim ekanligini aytib o'tgan: 1) anglashni o'rganish (shaxs tomonidan ijtimoiy va tabiiy borliq mohiyatining idrok qilinishi, shaxs muayyan faoliyat asoslarini o'zlashtira olishi zarur); 2) bajarishni o'rganish (shaxsning turli vaziyatlar, ijtimoiy subhektlar jamoasida samarali ishlash, faoliyat olib borish malakalarini o'zlashtira olishi lozim); 3) birgalikda yashashni o'rganish (shaxs tomonidan boshqalarni qabul qilinishi, tushunishi, xilma-xilligi (plyuralizm)ga erisha olishi); 4) yashashni o'rganish (shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi, mustaqil fikrlash, faoliyat yuzasidan shaxsiy javobgarlikni his qilishga o'rganishi) [4, 24-b].

M.H.Usmonboeva "kompetentlik" (ing. "com'etence" – "qobiliyat", "layoqat") tushunchasini mazmun nuqtai nazardan "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali

foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish olish" [2, 5-b.] ekanini ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikriga ko'ra, mutaxassisning kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligi namoyon bo'ladigan holatlar quyidagilar sanaladi: murakkab jarayonlar, noaniq vazifalarni bajarish, bir-birini inkor qiladigan ma'lumotlar bilan ishlash, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olish [2, 5-6-b.].

O.A.Shabanovning qayd etishicha, AQSHda kadrlarni tayyorlashga kompetentli yondashish muammosi XX asrning 10-20-yillaridan boshlab tadqiq qilingan bo'lsa, Rossiyada ushbu masalaning yechimini topish yo'lidagi amaliy harakatlar 1960-yillarda boshlangan [6]. O'zbekiston sharoitida kadrlarning kompetentligi va uni rivojlantirish muammosi aynan mustaqillik yillarida dolzarblashdi.

Kompetentlik negizida muayyan sifatlar – kompetentsiyalar ko'zga tashlanadi. Aksariyat holatlarda "kompetentsiya" tushunchasi "kompetentlik" atamasi bilan chalkashtiriladi va mualliflar ularning qaysi biri birlamchi ekani to'g'risida bahsga kirishadi. Aslida o'z mohiyatiga ko'ra kompetentlik "nimanidir yuzasidan fikrlashga imkon beradigan kompetentsiya, bilimlarning egallanganligi" [5, 295-b] demakdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda kompetentsiya "mutaxassisning tegishli soha bo'yicha har qanday sharoitda muayyan vazifalarni hech bir zo'riqishsiz yuqori samaradorlik asosida bajara olishi", kompetentsiya esa "mutaxassis tomonidan tegishli soha bo'yicha har qanday sharoitda muayyan vazifalarni hech bir zo'riqishsiz yuqori samaradorlik asosida bajara olishiga imkon beradigan aniq sifat" ekanini e'tirof qilish mumkin. SHunga ko'ra kompetentsiya bir guruh mustaqil, alohida kompetentsiyalarning yig'indisi hisoblanadi.

"Kasbiy kompetentlik" tushunchasi esa "mutaxassisning tegishli soha bo'yicha har qanday sharoitda muayyan o'z zimmasidagi kasbiy vazifalarini hech bir zo'riqishsiz yuqori samaradorlik asosida bajara olishi" tarzida namoyon bo'ladi va asosiy e'tibor kasbiy vazifalarning bajarilishiga qaratiladi. Mazkur fikrlar mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassisning kasbiy kompetentligi xususidagi qarashlarning oydinlashtirishga yordam beradi. Bunda,

eng avvalo, mutaxassis tomonidan bajariladigan vazifalar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish talab qilinadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassis (xotin-qizlar faoli)ning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish; xotin-qizlarning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralari jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambafallikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi; "Ayollar maslahat kengashlari" bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish; xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ofir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish [1].

Mazkur vazifalar o'z navbatida mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassis (xotin-qizlar faoli) tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan kasbiy kompetenlik sifatleri – kompetentsiyalarni belgilab olishga imkon beradi.

Mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassis (xotin-qizlar faoli) quyidagi kompetentsiyalarni o'zlashtira olishi zarur:

xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish kompetentsiyasi; xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faoliyatga faol jalb qilish kompetentsiyasi;

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatish kompetentsiyasi; zamonaviy namunali oilani shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni samarali tashkil qila olish kompetentsiyasi;

xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda kredit, subsidiya va boshqa yordam choralari jalb qilish choralari belgilash kompetentsiyasi;

mahallada aholi bandligini tahminlash va kambag'allikni qisqartirish masalalarida tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qilish kompetentsiyasi;

ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish kompetentsiyasi;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish kompetentsiyasi;

xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash kompetentsiyasi;

o'z ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlar, xususan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda ishlash kompetentsiyasi.

Belgilangan kompetentsiyalar mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassis (xotin-qizlar faoli)ning tashkilotchilik, kommunikativlik, liderlik sifatlariga ega bo'lish bilan birga ijtimoiy hamda huquqiy bilimlarni puxta egallashni taqozo qiladi. Mahlumki, mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassis (xotin-qizlar faoli) turli sohalarning vakillaridir. SHu sababli ularning tashkilotchilik, kommunikativlik, liderlik sifatleri, ijtimoiy va huquqiy bilimlari darajasi o'zaro muvofiq emas. Mazkur holat mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassislar (xotin-qizlar faollar)ning kasbiy kompetentligini oshirish chora-tadbirlarini belgilash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi.

OTM bilan hamkorlikda bu borada amaliy tadbirlarni tashkil etish samarali sanaladi. Muammoni nazariy jihatdan tahlil qilish mahalla tizimida xotin-qizlar ishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan mutaxassislar (xotin-qizlar faollar)ning kasbiy kompetentligini oshirish bo'yicha OTM bilan o'zaro hamkorlikni quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiq ekaniga ishonch hosil qilindi:

**1. Mini-mahruzalar shaklida** OTMda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy kafedralarning professor-o'qituvchilarini mahalla faoliyatiga jalb qilgan holda xotin-qizlar faollarining ijtimoiy-psixologik, pedagogik, huquqiy, biznes asoslari va oilaviy hayot masalalariga oid bilimlarini mustahkamlash.

**2. Trening shaklida** xotin-qizlar faollarining ijtimoiy-psixologik, pedagogik, huquqiy, biznes faoliyati va oilaviy hayot masalalariga oid amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini tahminlash.

**3. Amaliy seminar shaklida** xotin-qizlar faollarining ijtimoiy-psixologik, pedagogik, huquqiy, biznes faoliyati va oilaviy hayot masalalariga oid amaliy malakalarini rivojlantirish.

**4. Muammoli vaziyatlarni hal qilish – keyslar shaklida** xotin-qizlar faollari tomonidan ijtimoiy-psixologik, pedagogik, huquqiy, biznes faoliyati va oilaviy hayot masalalariga oid kasbiy kompetentlik sifatlarining o'zlashtirilishini tahminlash.

**5. Qisqa muddatli kurslar (3 yoki 5 kun, 1 hafta) shaklida** xotin-qizlar faollarining mahallada aholi bandligini tahminlash, kambafallikni qisqartirish, o'fir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlar, xususan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda ishlashga oid kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish.

## XULOSA

Shunday qilib, OTM o'zining moddiy-texnik asosi, professor-o'qituvchilar kontingentiga ko'ra xotin-qizlar faollarining kasbiy kompetentligini oshirishda mahalla tizimi bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega. Bu boradagi hamkorlik mutaxassis pedagoglarni jalb qilgan holda xotin-qizlar faollarining ijtimoiy-psixologik, pedagogik, huquqiy, biznes asoslari va oilaviy hayot masalalariga oid bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, kasbiy kompetentligini oshirishga qaratiladi. Hamkorlik negizida mini-mahruza, trening, amaliy seminar, muammoli vaziyatlarni hal qilish (keys), qisqa muddatli kurslar (3 yoki 5 kun, 1 hafta)ni tashkil qilish orqali OTMning malakali pedagoglari tomonidan mahallalarga pedagogik-psixologik, ijtimoiy, huquqiy va biznes yordamining ko'rsatilishiga imkon beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'rtinchi" (2022 yil 2 mart) PF-81-son Farmoni // <http://lex.uz/uz/docs/5884143>.
2. "Innovatsion tahlil texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU huzuridagi PKQTMO Tarmoq markazi, 2016. – 5-6-b.
3. Kasb tahlili mazmunini modernizatsiyalash asosida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Mashul muharr. R.X.Djuraev. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2012. – 6-b.
4. Obrazovanie: sokrotoe sokrovio'e (Learning: The Treasure Within) / Osnovnye polozheniya Doklada Mejdunarodnoy komissii po obrazovaniyu dlya XXI veka. Jak Delor. – M.: Izd-vo YuNESKO, 1996. – S. 24.
5. Sovremennyy slovar' inostrannyx slov. – M.: Russkiy yazqk, 2002. – S. 295.
6. SHabanov O.A. Kompetentsiya i kompetentnostg' v protsesse razvitiya sovremennogo obrazovaniya // <http://cyberleninka.ru/article/n/kom'tentsiya-i-kom'tentnost-v-'rotsesse-razvitiya-sovremennogo-obrazovaniya>.